

PAPER

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Zokirov Ulug'bek Murodjon o'g'li <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

\*goldman.ulugbek@gmail.com

## Abstract

Maqolada maktabgacha ta'limga tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bolgan tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi ya'ni kuch, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamkorlik harakat sifatlarini baholashda jahoning rivojlangan davlatlarida qollaniladigan usullar va maktabgacha ta'limga tashkilotlarda olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

**Key words:** jismoniy sifat, monitoring, jismoniy qobiliyat, jismoniy tayyorgarlik testlari.

## Kirish

Dunyo mamlakatlarida bolalarning sog'lik-salomatligi, jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi hamda ularni shaxs sifatida balog'atga yetishiga hozirgi paytda turli ko'lamda salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Maktabgach ta'limga vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zarboq'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurligi ko'satilgan. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quydagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'gom turmush tarzining shakllanishi;

- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'gom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi ta'limga tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshi bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish

me'yorlariga mos ravishda jismoniyfaollik ko'rsatadi;

- turli xil faol harakat turlarini uyg'un holda va maqsadli bajarishni biladi;
  - turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
  - o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
  - shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;
  - sog'gom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
  - xavfsiz hayat faoliyati asoslarini qoidalariga rioya qiladi [1].
- Bolalarning jismoniy tayyorgarligini yoshga nisbatan baholash ularning qanday darajada jismoniy holatini o'sayotganini yoki aksincha pasayish tomonlarini aniqlash imkonini ko'rsatadi.

## Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Amerika Qo'shma Shtatlarida kuch va tezkorlik kuchini baholashda turgan joydan uzunlikka sakrash, tennis to'pini uloqtirish, futbol to'pini tepish, beysbol raketkasida beysbol to'piga zarba berish, tezkorlik jismoniy sifatini baholashda 15 metrga tez yugurish bolsa, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlanishda chiziq bo'ylab sakrash, oyoqni kerib sakrash, bir oyoqda sakrash, ikki oyoqda sakrash (TGMD) 3-10 yoshli bolalar harakat faoliyatini rivojlanish testlari belgilangan. Kolumbiya

va Chili davlatlarida "Fuprecol kids" test mezonlariga binoan kuch va tezkorlik kuchi uchun turgan joydan uzunlikka sakrash, qol kuchini aniqlash dinomometr, tezkorlik jismoniy sifatini baholashda 20 metrga yugurish, chaqqonlik jismoniy sifatini baholashda 4x10 metrga yugurish belgilangan. Egiluvchanlik jismoniy sifatini aniqlashda Chili davlati ko'plab tadqiqotlarda egiluvchanlikni baholashda o'tirgan holda gavdani cho'zish mezonlari qo'llanilgan.

Germaniyada 3-6 yoshli maktabgacha bolalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun 2004 yilgi Karlsruher maktabgacha yoshdag'i bolalar jismoniy tayyorgarlik testi qabul qilingan bo'lib, kuch va tezkorlik-kuch sifatlarini aniqlashda turgan joydan uzunlikka sakrash, egiluvchanlikda turgan holda gavdani cho'zish, muvozanat saqlashda bir oyoqda muvozanat saqlab turish, koordinatsion qobiliyatlarini baholashda 15 sekund ikki yon tomonga sakrash belgilangan. Xitoy davlatida 2000 yilda ishlab chiqilgan Xitoy milliy jismoniy tayyorgarlik olchovlarida 3-6 yoshli bolalar uchun kuch va tezkorlik-kuch sifatlarini baholashda turgan joydan uzunlikka sakrash, tennis to'pini uloqtirish, chaqqonlik uchun 2x10 metrga yugurish, egiluvchanlikka o'tirgan holda gavdani cho'zish, muvozanat uchun gimnastika xodasida muvozanat saqlab turish, koordinatsion qobiliyatlarga 5 metrga ikki oyoqda sakrab borish mezonlari joriy etilgan [4,5,6].

Shvetsiya, Estoniya, Serbiya, Norvegiya, Italiya mamlakatlariida maktabgacha bolalarning jismoniy tayyorgarligini va harakat faolligini aniqlashda PREFIT (maktabgacha yoshdag'i bolalarning jismoniy tayyorgarligini baholash) va EUROFIT (Yevropa jismoniy tayyorgarlik test batareyalari) test mezonlaridan foydalilanilganligi aniqlandi. Bu testlar asosan 3-6 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda katta yoshdagilar uchun ham qo'llaniladi. Kuch jismoniy sifati baholashda turgan joydan uzunlikka sakrash, qol kuchini aniqlash dinomometr, tezkorlikda 20 metrga tez yugurish, chaqqonlik uchun 4x10 metrga moksimon yugurish bo'sha muvozanat saqlashda bir oyoqda muvozanat saqlab turish berilgan [7].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkiloti davlatlari (Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston)dan maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojanishi bo'yicha maxsus mezonlarni Rossiya va Belarussiya mamlakatlarining mutaxassislari tomonidan o'rganilib borilayotganligi ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarda kuzatildi.

## Tahlil va natijalar

Moldova respublikasida maktabgacha yoshdag'i bolalarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojanishi davlat tomonidan belgilangan standartlar bo'yicha tashkil etiladi. Misol tariqsida, 1,5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojanishi harakat ko'nikmalarining shakllanishi bilan baholanib, unda yurish, yugurish, burilish, to'p bilan harakat faoliyatini amalga oshirish va boshqa harakatlar yoshga nisbatan berib boriladi. 3,2-jadvalda 1,5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda rivojanish muammolarini dastlabki aniqlash va qayta baholash nazorat ro'yxati bolalarning rivojanishi va bilimga ega bo'lishi standartlari ko'rsatilgan.

Jadvalda ko'rsatilgan harakat faoliyatlarini bajarishda baholash tartibi bajarmadi, bajarish jarayonida va bajardi ko'rinishida amalga oshiriladi. Jismoniy tomonidan barcha haraktlarni bexato bajarganda bolaga bajardi deb baho qo'yiladi [3]. Toshkent shahar 103-sonli maktabgacha ta'limga tashkiloti va "Rahimov school" xususiy maktabining 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarining jismoniy tayyorgarlik holati "Gepartlar" 10 metrga yugurish, "Kingurular" turgan joyda uzunlikka sakrash, "Flamingo" bir oyoqda muvozanat saqlab turishda 3,9 ni ko'rsatilgan.

Nº	1,5 yoshdan 3 yoshgacha	3 yoshdan 5 yoshgacha	5 yoshdan 7 yoshgacha
1.	Yurish, yugurish va yo'nalishni engil o'zgartirish	Xatosiz yurish va yugurish, to'siqlar va buyumlardan aylanib o'tish	Turli xil harakatlarni bajarish oldidan o'z tanasining qismlarini muvofiqlashtirishni namoyon etish
2.	To'pni uradi va uni sekin uloqtiradi	Katta sharni qo'l bilan tutib olish va uni qaytarish	Bir nechta vazifalarni bajarishda yirik motorika malakalaridan foydalananish
3.	Ochiq havodagi o'ynlarda raqsiga tushishda faol ishtirot etadi	Atrof-muhit ta'siriga jismoniy tomonidan javob qaytarish (sakraganda qo'nish uchun oyoqlarni bukish, to'siqlardan qochish uchun tezroq harakatlanish, yon tomonga egilish, har xil hidrlarni his qilish)	Sog'likni mustahkamlash uchun bir qancha jismoniy harakatlarni bajarish

Рис. 1. 1,5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda rivojanish muammolarini dastlabki aniqlash va qayta baholash nazorat ro'yxati

bolalardan olindi. Toshkent shahar 103-sonli maktabgacha ta'limga tashkiloti kichik guruhidagi 3-4 yoshli bolalarning "Gepartlar" 10 metrga yugurish testida o'rtacha  $5,13 \pm 0,72$ , "Kingurular" turgan joyda uzunlikka sakrashda  $42,1 \pm 12,9$ , "Flamingo" bir oyoqda muvozanat saqlab turishda  $2,21 \pm 1,48$  ni tashkil etdi. Tayyorlov guruhidagi bolalardan olingan natijaga ko'ra "Gepartlar" 10 metrga yugurishda  $3,77 \pm 0,41$ , "Kingurular" turgan joyda uzunlikka sakrashda  $96,3 \pm 13,1$ , "Flamingo" bir oyoqda muvozanat saqlab turishda  $10,7 \pm 3,81$  ni tashkil etdi. "Rahimov school" xususiy maktabining tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilaridan olingan natijaga ko'ra "Gepartlar" 10 metrga yugurish testida o'rtacha  $3,35 \pm 0,33$ , "Kingurular" turgan joyda uzunlikka sakrashda  $104,4 \pm 16,2$ , "Flamingo" bir oyoqda muvozanat saqlab turishda  $14,6 \pm 7,9$  ni tashkil etdi. Absolyut farq bo'yicha 103-sonli maktabgacha ta'limga tashkiloti va "Rahimov school" xususiy maktabining tayyorlov guruhidagi bolalarning "Gepartlar" 10 metrga yugurish testi  $0,42$  ni tashkil etgan bolsa, "Kingurular" turgan joyda uzunlikka sakrashda  $8,1$ , "Flamingo" bir oyoqda muvozanat saqlab turishda  $3,9$  ni ko'rsatdi.

## Xulosa

Maktabgacha ta'limga tashkiloti tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini baholashda birinchi o'rinda sog'lik salomatligini hisobga olish asosiy jihat sifatida qaraladi. Bolalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda jismoniy tarbiya mashq'ulotidan tashqari kun davomida tashkil etiladigan jismoniy tarbiyaga aloqador harakatli o'yinlar, estafetalii o'yinlar va boshqa harakat faoliyatlarini ularning jismoniy, intellektual rivojlanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tarbialanuvchilarining yosh guruhlariga qarab jismoniy tayyorgarligini bajarishda avval tanani qizdirish mashqlarini bajarish ularda jarohat bolish alomatlarini oldini oladi.

## References

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini monitoring qilishda olingan natijalarining tahlili. // "Ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi va gimnastikaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman to'plami. – Chirchiq, 2025. 361-364-b.
2. Zokirov U.M. Maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini monitoring qilishda olingan natijalarining tahlili. // "Ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi va gimnastikaning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman to'plami. – Chirchiq, 2025. 361-364-b.

3. Министерство Образования, Культуры и Исследований Республики Молдова. Инструкция по применению Методологии оценки развития ребенка в области раннего образования. 2018. –14–30 с.
4. 20. Gómez-Bruton A, Marín-Puyalto J, Muñiz-Pardos B, Lozano-Berges G, Cadenas-Sánchez C, et al. Association between physical fitness and bone strength and structure in 3- to 5-year-old children. *Sports Health.* (2020) 12:431–40. 10.1177/1941738120913645 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]
5. Fang C, Zhang J, Zhou T, Li L, Lu Y, Gao Z, et al. Associations between daily step counts and physical fitness in preschool children. *J Clin Med.* (2020) 9:163. 10.3390/jcm9010163 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]
6. Roth K, Mauer S, Obinger M, Ruf KC, Graf C, Kriemler S, et al. Prevention through Activity in Kindergarten Trial (PAKT): a cluster randomised controlled trial to assess the effects of an activity intervention in preschool children. *BMC Public Health.* (2010) 10:410. 10.1186/1471-2458-10-410 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]
7. Popović B, Cvetković M, Mačak D, Šćepanović T, Cokorilo N, Belić A, et al. Nine Months of a structured multisport program improve physical fitness in preschool children: a quasi-experimental study. *Int J Environ Res Public Health.* (2020) 17:4935. 10.3390/ijerph17144935 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]